

## Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishdagi hamkorlik

2018 yil 30 noyabr kuni TIQXMMI 2-ma'ruzalar zalida soat 15:00 da "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti talabalariga Mirzo Ulug'bek tumani Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi 2-IIB boshlig'i podpolkovnik Daminov Kamoliddin Bobosherovich, Mirzo Ulug'bek tumani Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi 2-IIB boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik Xalikov Jahongir Baxodirovlar ishtirokida "Talaba yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik, jinoyatchilikning oldini olish" mavzusida profilaktik tadbir o'tkazildi.

Tadbirda "SXTE va B" fakulteti dekani O.R.Kucharov, "SXTE va B" fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari J.R.Turdiyev, guruh murabbiylari hamda 126 nafar talabalar ishtirok etdilar. Tadbirda Ichki ishlar idoralari xodimlari bugungi kunda tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatlar ularning turlari, narkotik moddalar iste'moli, sotish va tarqatish bilan bog'liq jinoyatlar ularning salbiy oqibatlari, korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar, bezorilik, o'g'irlik jinoyatlari, nomusga tegish bilan bog'liq jinoyatlar xususida talabalarga hayotiy misollar va faktlar asosida sodir etilgan jinoyatlarning mohiyati xususida to'xtalinib, jinoyat hech qachon jazosiz qolmasligi, jinoyatga jazo muqarrar ekanligini ta'kidlab o'tdilar. Tadbirda ma'ruzachilar talabalarni ogohlikka chaqirib, vatanga sodiq va fidoiy insonlar bo'lib yetishishlariga tilakdosh ekanliklarini bildirib o'tdilar. Tadbir qizg'in savol-javoblar tarzida bo'lib o'tdi.



**"SXTE va B" fakulteti dekan o'rinbosari J.Turdiyev axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**